



## NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 30-aprel

143-5-73-Q/26

Navbahor tuman hokimligi

**Mahallalardagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholash to'g'risida**

**Mahallalardagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlarni ilg'or xalqaro amaliyot asosida jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-25-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 21-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlarni ilg'or xalqaro amaliyot asosida

jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-25-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur farmonga muvofiq:

"mahalla yettiligi"ning faoliyati asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha alohida baholanishi, bunda ko'rsatkichlar mazkur xodimlarning ish beruvchilari tomonidan Uyushma bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mahallalardagi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimlarining yordamchilarining 2026-yil II-IV choragi uchun faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi birgalikda bir oy muddatda mahallalardagi hokim yordamchilari uchun samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash metodikasi bo'yicha qisqa muddatli o'quv-seminarlarini tashkil etsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan hokim yordamchilari berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan hokim yordamchilariga to'lanadigan samaradorlik ko'rsatkichlar (KPI) bo'yicha to'lovlari Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining tegishli buyrug'i asosida 3 oy muddatgacha to'lanishi to'xtatilish belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

6. Navbahor tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, mazkur qaror ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlab borish hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlarni har chorak yakuni bilan tuman hokimligiga kiritib borsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Jumaboyev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**A.Rashidov**

**HOKIM YORDAMCHILARINING 2026-YIL II-IV CHORAGI UCHUN FAOLIYAT SAMARADORLIGI  
KO'RSATKICHLARI (KPI)**

T/r	Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkichni hisoblash usuli	O'lchov birligi	Vazn	Ko'rsatkichlarni kiritishga mas'ul organ
<b>Asosiy statistik ko'rsatkichlari</b>					
1	Aholi bandligini ta'minlagani	MFYdagi fuqarolarni doimiy ish bilan band qilish. Oylik maqsadli ko'rsatkichlarga erishilganlikka ko'ra proporsional ravishda maksimal <b>10 ballgacha</b> baholanadi.	<i>Foiz</i>	10	<b>Soliq qo'mitasi</b> <i>(hududiy boshqarmasi)</i>
2	“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari” ijrosini ta'minlagani	<p>a) Hokim yordamchilari tomonidan “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari” doirasida fuqarolarga <i>o'z vaqtida</i> kredit olish uchun tavsiya yoki rad javobi bergani hamda tegishliligi bo'yicha kredit ajratish dalolatnomalarini <i>o'z vaqtida</i> taqdim etgani uchun maksimal <b>5 ballgacha</b>;</p> <p>b) Dastur doirasida ajratilgan umumiy kreditlarning to'liq monitoring qilinganligi holati bo'yicha maksimal <b>5 ballgacha</b> hisoblanadi;</p> <p>v) Hokim yordamchisi tomonidan ajratilgan kreditlarning <i>o'z vaqtida</i> qaytarilganligi (NPL) uchun maksimal <b>5 ballgacha</b> hisoblanadi.</p>	<i>Promille</i>	15	<b>Markaziy bank</b> <i>(hududiy boshqarmasi)</i>
3	“Kambag'al oila reyestri”ga kiritilgan fuqarolarga ko'rsatgan ko'magi	<p>a) “Kambag'al oilalar reyestri”ga kiritilgan mehnatga layoqatli (nogironligi bo'lmagan, psixonevrologik kasalliklarga chalinmagan 18-60 (ayollar uchun 55) yoshdagi) fuqarolarga “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida hokim yordamchisi tomonidan ko'rsatilgan ko'mak uchun maksimal <b>7.5 ballgacha</b>.</p> <p>Bunda, “Kambag'al oilalar reyestri”dan hokim yordamchisi ko'magidan so'ng chiqarilgan oilalarga ko'rsatilgan ko'mak ham inobatga olinadi;</p>	<i>Foiz</i>	20	<b>Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</b> <i>(hududiy boshqarmasi)</i>

		<p>b) Hisobot kunida “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan fuqarolar qatoridan hokim yordamchisi ko‘magi orqali chiqarilgan fuqarolar uchun maksimal <b>7.5 ballgacha</b>.</p> <p>Bunda, hokim yordamchisi tomonidan ko‘mak ko‘rsatilmagan holda reyestrda chiqarilgan fuqarolarga ball hisoblanmaydi.</p> <p>v) “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan mehnatga layoqatli (nogironligi bo‘lmagan, psixonevrologik kasalliklarga chalinmagan 18-60 (ayollar uchun 55) yoshdagi) fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish hamda ularga mahsulotini sotishga ko‘maklashish uchun maksimal <b>5 ballgacha</b>.</p>			
4	Kasb-hunar va tadbirkorlik bo‘yicha o‘qitishga ko‘maklashgani	<p>MFYdagi mehnatga layoqatli fuqarolarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitishga ko‘maklashgani uchun maksimal <b>15 ballgacha</b> baholanadi.</p> <p>Bunda, kasb-hunar yo‘nalishi bo‘yicha vaucher tizimi orqali, tadbirkorlik yo‘nalishi bo‘yicha Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida o‘qishni yakunlab sertifikatni qo‘lga kiritgan fuqarolargina inobatga olinadi.</p>	<i>Foiz</i>	15	<b>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</b> (hududiy boshqarmasi)
5	Mikroloyihalarni ishga tushirganligi	<p>MFYdagi mehnatga layoqatli fuqarolarga tegishli moliyaviy va nomoliyaviy ko‘mak orqali ularning mikroloyiha ochishi hamda ishga tushirishiga ko‘maklashgani uchun maksimal <b>10 ballgacha</b> baholanadi.</p>	<i>Foiz</i>	10	<b>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</b> (hududiy boshqarmasi)
6	Tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligini ta‘minlagani	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59 Farmoniga muvofiq uzoq muddatli mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni bandligini ta‘minlagani uchun <b>5 ballgacha</b> baholanadi.</p>	<i>Foiz</i>	5	<b>Ichki ishlar vazirligi</b> (hududiy boshqarmasi)
7	Korxonalarda xalqaro standartlar va menejment tizimlarini joriy etganligi	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-25 Farmonga muvofiq korxonalarda xalqaro standartlar va menejment tizimlarini joriy etganligi uchun <b>5 ballgacha</b> baholanadi.</p>	<i>Foiz</i>	5	<b>Texnik jihatdan tartibga solish agentligi</b> (hududiy boshqarmasi)
Jami:			<i>Ball</i>	80*	

MFY raisi ballari					
8	Mahalla raisi tomonidan yo'naltirilgan muammoli masalalarni bartaraf etganligi	30 ta va undan ortiq	<i>Ball</i>	10	<b>Mahalla raisi</b>
		20 ta va undan ortiq		3	
		16 ta va undan ortiq		1	
		15 ta va undan kam		0	
	Mehnat intizomiga rioya etilganligi	Haqiqatda ishlangan kunlari to'liq bo'lgan	<i>Ball</i>	10	
		O'n kungacha ishga kelmagan		3	
		O'n kun va undan ortiq ishga kelmagan		0	
Jami			<i>Ball</i>	100	

*Izoh:*

1. 2025-yil 14 fevraldagi "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-22-son Farmoniga muvofiq tomorqa va ijara yer xatlovni to'liq bajarganidan so'ng hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347 qaroriga muvofiq saralangan "Loyiha menejer"lariga o'z MFYsi ballariga qo'shimcha 10 ballgacha qo'shiladi (biroq 100 balldan yuqori bo'lmagan holda).